



maktabgacha  
va maktab ta'lifi bo'limi  
tasarrufidagi  
—umumi o'rta ta'lim maktabi  
**10-“\_” SINF RAHBARI**  
**ning**

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining  
34 yilligiga bag'ishlangan

*“Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!”*

shiori ostida tayyorlagan bir soatlik

**DARS**  
**ISHLANMASI**



**Mavzu: “Eng ulug‘, eng aziz”**

**Shior: ““Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!”**

**Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy maqsad:** O‘zbekiston mustaqilligining 34 yilligi va bu yillar ichida erishgan yutuqlar. Davlat ramzlar bilan tanishtirish. O‘quvchilarning bilim olishlari uchun davlat tomonidan yaratib berilayotgan imkoniyatlar, Prezident maktablari haqida tushuncha berish.

**Tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilar qalbiga Vatanni jonidan ortiq sevish tuyg‘usini jo qilish, ularning ota-bobolaridan el-yurtini qadrlash fazilatini o‘rganishga odatlantirish ona-Vatanga munosib o‘g‘il -qiz qilib tarbiyalash. Vatan ravnaqiga munosub hissa qo‘sghan sharaflı kasb egalariga nisbatan yosh qalblarda havas uyg‘otish.

**rivojlantiruvchi maqsad-** o‘quvchilar faolligi, iqtidor va salohiyatini rivojlantirish, shuningdek, “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, “Har bir oila – tadbirkor”, “Yoshlar – kelajagimiz”, “Besh ijobjiy tashabbus” “O‘zbekiston—2030” strategiyasining asosiy ustuvor yo‘nalishlari va “Xalq va armiya – bir tanu bir jondir!” tamoyilini ro‘yobga chiqarish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlarni keng targ‘ib etish kabi muhim dastur va rejalar doirasida olib borilayotgan tub islohotlarning ma’no-mazmuni va ruhi mujassam etganligini o‘quvchilar ongiga singdirish.

**Tayanch kompetensiya elementlari:**

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:** kompyuter televizor, multimedialar, videoroliklar.

**O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi:** O‘quvchilar o‘zini va o‘zligini anglashga o‘rgatish, keljakda amajga oshiriladigan ishlarni maqsadli ravishda amalga oshirish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:** milliy bayramlarni, milliy qadriyatlarni, o‘zi yashab turgan tarixiy obidalarni bilish va bir-biridan farqlash, mustaqillik asoschilarini o‘rganish va ularning amalga oshirgan ishlaridan o‘rnak olish, keljak avlodlarga yetkazish.

**Dars turi:** aralash

**Dars metodi:** “Asismen” texnologiyasi, “Tarmoqlash” metodi, “Teskari test” metodi,

**Darsning jahozi:**

**didaktik jihoz:** Tarqatma materiallar, rasmlar, yurtimiz tarixi, mustaqillik yillarda erishgan muvaffaqiyatlarni aks ettiruvchi foto albomlar, bukletlar, fan, madaniyat va sport sohasida dunyoga tanilgan yurtdoshlarimizni, ya’ni O‘zbekiston iftixonlarini va tarixiy shaxslarni rasmlari.

**Darsning borishi:**

1. Tashkiliy qism
2. Vatan qasidasi

a) Vatan deganda nimani tushunasiz?

(She’rlar, maqollar, hikmatli so‘zlar)

Vatan! Mening onam, mening tuprog‘im,

Vatan! Mening jonim, mening qo‘rg‘onim.

Sen mening hayotim, mening gulzorum,

Seni jonim qadar sevaman, Vatan!



b) Guruhlarda ishlash.

1. Yoshlar guruhi.
2. Nihol guruhi.
3. Kelajak ovozi.

### Savol va javob

**1. “Yoshlar” guruhi**


- ❑ O‘zbekiston qachon mustaqillikka erishgan?
- ❑ Davlatimiz siz bolajonlarga qanday g‘amho‘rlik qilmoqda?

**2. “Nihol” guruhi.**

- ❑ Gerb qachon tasdiqlangan?
- ❑ O‘zbekiston bayramlarini sanab bering.


**3. “Kelajak ovozi” guruhi.**

- ❑ O‘zbekistonda yashab ijod etgan buyuk siymolar haqida so‘zlab bering.



- ❑ Bayroqdagi ranglarni ta’riflab bering.






## Vatan mening tasavvurimda

Vatan mening tasavvurimda mavzusida qisqacha matn tuzadilar:

Masalan:

**Vatan.** Bu so‘zni eshitganda yoki aytganimda ko‘z oldimda bepayon dala, go‘zal tabiat, uyim ostonasi, oilam, yaqinlarim, yerda o‘rmalab yurgan chumolilar, mehnatkash bobo dehqon namoyon bo‘ladi. U men uchun onamdek aziz, mo‘tabardir.



### 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, tub islohot jarayonlarini yangi bosqichga ko‘tarish, inson huquq va manfaatlari, uning qadri, sha’ni va g‘ururini yetakchi o‘ringa olib chiqish ustuvor vazifamizga aylangan hozirgi vaqtida yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash, davlatimizning hududi yaxlitligi va bo‘linmasligi, sarhadlarimiz daxsizligini ta’minlash, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik va hamjihatlikni mustahkamlashga intilish ko‘p millatli xalqimizni yanada birlashtiradigan, yuksak marralarga safarbar etadigan beqiyos kuchga aylanib bormoqda. Respublikamizda ta’lim tizimining rivojlanishi shiddat bilan o‘sib bormoqda. Mustaqillikdan avvalgi an’anaviy darslar o‘rnini noan’anaviy tarzdagi kompetensiyaviy talimga asoslangan darslar egallayotganligi, ta’lim tizimini tubdan isloh qilinayotganligi, o‘qituvchi maoshi va obro‘sini yuksaltirishdagi prezidentimizning olib borayotgan oqilonqa siyosatlari to‘g‘risida suhbat uyuştiriladi va o‘quvchilarni o‘qituvchilik kasbini egallashiga yo‘naltiriladi.

Prezidentimiz raisligida 2019-yil 19-mart kuni o‘tkazilgan yoshlarni ma’naviyatini yuksaltirish va ularni bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda 5 ta muhim tashabbusni belgilab berdi.

**Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, iste’dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.**



**Ikkinci tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyish qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan.**



*Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o'rtaida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.*



*To'rtinchi tashabbus yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtaida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.*



*Beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.*



#### **Mustahkamlash:**

O'qituvchi so'zi: O'zbekistonning yanada ravnaq topishi gullab yashnashi siz yoshlar zimmasida. Shunday ekan ota-onangiz, yurtboshingiz ishonchini oqlash uchun faqat a'llo baholarga o'qishingiz, odob –ahloq bobida tengdoshlaringizga namuna bo'lishingiz kerak.

#### **Yakunlash:**

- O'zbekiston halq artisti
- O. Nazarbekovning "Vatan" qo'shig'i.
- O'quvchilarni rag'batlantirish.

**Uyga vazifa:** "Bir bo'lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!" mavzusida insho yozib



[\*\*www.idum.uz\*\*](http://www.idum.uz) veb-sayti ma'muriyati  
hamkorlik va taqdim etilgan fayllar uchun  
[\*\*www.zokirjon.com\*\*](http://www.zokirjon.com) sayti ma'muriyatiga o'z  
minnatdorchilik bildiradi

[\*\*www.zokirjon.com\*\*](http://www.zokirjon.com) saytidan kerakli fayl va  
hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

**Ma'lumot uchun telefonlar:**  
+998905306866, +998913977737

Yoki telegram orqali yozishingiz mumkin:  
**@nza456 yoki @nza445**